

## AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNING NAMOYON BO‘LISHI

*Nazarova Muharram Yunus qizi*  
*Oila va xotin qizlar ilmiy-tadqiqot instituti*  
*1-kurs doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada zo‘ravonlik, va uning ayollarda namoyon bo‘lish shakllari haqida yoritilgan bo‘lib, statistik ma‘lumotlar keltirilgan, uning yechimlari taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Zoravonlik, zo‘ravonlik turlari, jismoniy, jinsiy, moddiy, psixologik zo‘ravonlik, xarassment, gazlayting, bolalar nikohi.

**Abstract.** The article describes violence and its manifestations in women, provides statistical data, and offers solutions.

**Key words.** Violence, types of violence are physical, sexual, material, psychological violence, harassment, gaslighting, child marriage.

**Kirish.** Xotin-qizlarning jamiyatda ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash har bir rivojlangan jamiyat oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Va afsuski bugungi kunga qadar zo‘ravonlikdan eng ko‘p jabr chekuvchi xotin-qizlarning soni ortib borayotgani ham sir emas. Birgina 2021-yilning o‘zida dunyoda 31% ayollar jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlik qurboniga aylangan. Hayoti davomida 27% ayollar zo‘ravonlikning u yoki bu turiga uchragan. Ular ichida 45% ayollar jismoniy shikastlanishgan. 38% qotilliklar ayollarning o‘z yaqinlari tomonidan sodir etilgan.

**Asosiy qism.** Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan zo‘ravonlikka quyidagicha ta‘rif beriladi: “Zo‘ravonlik - o‘linga, psixologik zararga, noto‘g‘ri rivojlanishga yoki mahrumlikka sabab bo‘luvchi o‘ziga, boshqa shaxsga, guruhga yoki jamiyatga qarshi har qanday kuchni qasddan qo‘llash, tahdid qilish yoki jarohat yetkazishlikdir.” Psixologik tasnifda zo‘ravonlik shaxsga, ijtimoiy kuchga nisbatan qasddan jismoniy kuch yoki ruhiy bosim sifatida belgilanadi va tasodifiy holatda zarar

yetkazishdan farqlanadi masalan, kimdir tasodifan yoki ehtiyotsizlik bilan yonida turgan odamni tirsagi bilan turtib yuborsa, bu zo'ravonlik harakati sifatida qaralishi mumkin emas, chunki uni amalga oshirish uchun oldindan qasd yo'q u bu odamga zarar yetkazish uchun hech qanday harakatga ega bo'lmagan. S.I.Ojegova zo'ravonlikning majburlovchi tabiatiga alohida ahamiyat qaratgan va zo'ravonlikni bir shaxsning (guruh, jamiyat) boshqa shaxsga (guruh, jamiyat) ataylab va majburlab jismoniy yoki ruhiy bosimi deb ta'riflagan.

Bugungi kunda zo'ravonlikning asosiy bir nechta turi farqlanadi:

1. Jismoniy
2. Psixologik
3. Jinsiy
4. Iqtisodiy

**Jismoniy zo'ravonlik** - tasodifiy bo'lmagan har qanday zarar shakli bo'lib, Kaltaklash, jismoniy izolyatsiya, odam o'g'irlash kabi hollarda namoyon bo'ladi. Ushbu jarohatlar o'limga, jiddiy (tibbiy yordamni talab qiladigan) jismoniy yoki aqliy zaiflashuvga yoki nogironlikka olib kelishi mumkin.

**Jinsiy zo'ravonlik.** Jinsiy zo'ravonlik nafaqat zo'rlash yoki tahdid, balki, masalan, majburan teginish holatlarida namoyon bo'ladi. Jinsiy zo'ravonlik, shuningdek, kimnidir jinsiy aloqada bo'lishga majburlash uchun qo'rqitishni ham o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, jinsiy tajovuzkor - bu shaxsning xohishiga qarshi jinsiy harakatlarni amalga oshiradigan kishi. Dunyo miqyosida 6 % ayollar eri yoki yaqin insoni bo'lmagan boshqa biron tomonidan jinsiy tajovuzga uchraganini qayd etadi. Biroq, yaqin bo'lmaganlar tomonidan sodir etilgan jinsiy zo'ravonlikning haqiqiy statistikasi, zo'ravonlikning ushbu shakli bilan bog'liq stigmani hisobga olgan holda, ancha yuqori bo'lishi mumkin.

**Psixologik (emotsional) zo'ravonlik** - insonning ruhiyatiga ta'sir qilish bo'lib, uning maqsadi shaxs irodasini bostirishdir. Bunday ma'naviy bosim jiddiy hissiy travma va ruhiy kasalliklar: depressiya, o'z joniga qasd qilish fikrlari, stress, tashvish,

vahima hujumlariga olib keladi. Psixologik zo'ravonlik quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

- tahdid va qo'rqitish;
- haqorat va kamsitish;
- uyat va aybdorlik tuyg'ularini tarbiyalash;
- beparvolik va qasddan sovuqqonlik;
- ekspluatatsiya;
- majburiy izolyatsiya;
- hokimiyat yoki nazoratni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Zo'ravonlikning bunday shaklida insonning moddiy manfaatlariga uning ma'naviy farovonligiga nisbatan haddan tashqari e'tibor berish natijasida kelib chiqadi. Psixologik zo'ravonlikning asosiy shakllari:

- asl psixologik (masalan, aybdorlik va uyat tuyg'ularini uyg'otish, doimiy tanqid qilish, jazo sifatida boykot qilish);
- og'zaki(verbal) (qichqiriq va to'g'ridan-to'g'ri haqorat) Ovoz balandligi va ohangidagi o'zgarishlarda, haqoratli so'zlar va iboralarda, tez-tez bo'linishlarda, chalkashliklarda, tuhmat va qoralashlarda namoyon bo'ladi. Natijada, bir qarashda zararsiz, kulgili taxalluslar ba'zida norozilik va o'z-o'zidan pastlik tuyg'usini keltirib chiqaradi va bu ham shaxsga nisbatan zo'ravonlik sifatida baholanadi.
- ijtimoiy (ayolni tashqi olamdan uzish, uni izolyatsiya qilish va do'stlari bilan muloqot qilishni taqiqlash orqali jazolash);

**Moliyaviy (iqtisodiy)** zo'ravonlikda zo'ravon o'zini kamroq aniq salbiy narsalarda namoyon qiladi va ko'pincha tejamkorlik va oilaga g'amxo'rlik sifatida yashiriladi. Uning o'zi bu imtiyozlardan javobgarlik va cheklovlarsiz foydalanadi, barcha daromad manbalarini nazorat qilish tajovuzkor jabrlanuvchiga keladigan barcha daromadlar, aktivlar, sovg'alar, meros va ish haqi hisobini talab qiladi. U barcha bu imtiyozlarni faqat o'zining foydalanishiga o'tkazishga majbur qiladi. Ushbu talablarga rioya qilmaslik og'zaki, jismoniy, jinsiy yoki hissiy zo'ravonlik bilan jazolanadi.

## International Conference on Education and Innovation

Shuningdek, psixologik zo'ravonlikni amalga oshirishning o'ziga xos "texnikasi" ga ko'ra tasniflanishi mumkin.

**Gazlayting** – bu o'zaro muloqotda mavjud va'dalar, kelishuvlar yoki so'zlarni rad etishdir.

Muntazam yolg'on va inkorlar orqali zo'ravon jabrlanuvchining o'ziga ishonishini to'xtatib, aldash va manipulyatsiya uchun yanada osonroq nishonga aylanishini ta'minlaydi. Gazlayner, o'tmishdagi faktlarni buzib, inkor etib, qurbonni o'ziga ishontiradi. Jabrlanuvchi hamma narsaga shubha qila boshlaydi: o'zining yetarliligi, qarorlarining maqsadga muvofiqligi, o'zini yaxshi va munosib his qilish. Zo'ravon jabrlanuvchining ishonchi va psixologik muvozanati silkitiladi va tajovuzkor uning ustidan deyarli to'liq nazoratni qo'lga kiritadi va o'z irodasini buyuradi. Ushbu turdagi psixologik zo'ravonlik psixikaga o'ta halokatli ta'sir ko'rsatadi, uning oqibatlari tashvish va klinik depressiyaning kuchayishidan tortib shizofreniya rivojlanishigacha olib boradi.

**Xarassment** - tor ma'noda bezorilik ish joyidagi jinsiy zo'ravonlikka tenglashtirilsa, keng ma'noda bu boshqa shaxslarning chegaralarini buzadigan xatti-harakatlardir. Intruziv qo'ng'iroqlar va xabarlar, kuzatuv, asossiz teginish, istalmagan quchoqlash, silash va h.k. Zo'ravonni to'xtata olmaslik o'z-o'zini hurmat qilish va o'ziga ishonchga ta'sir qiladi: ta'qib qurbonlari o'zlarini zaif his qiladilar, o'zlarining himoyasizligini anglashdan umidsizlik va kuchsizlikni boshdan kechiradilar.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning boshqa og'ir shakllari ham mavjud bo'lib, jamiya farovonligi, xotin-qizlar tinchligini saqlashga asosiy to'siqlar sifatida qaraladi. Masalan; femitsid, odam savdosi, bolalar nikohi.

**Femitsid** - bu ayol yoki qizni ayol yoki qiz bo'lgani uchun qasddan o'ldirishdir. Gender asosidagi qotillik sabablari gender rollari bilan bog'liq stereotiplar, ayollar va qizlarni kamsitish, jamiyatda ayollar va erkaklar o'rtasidagi tengsiz kuch munosabatlarigacha bo'lishi mumkin. Ayollar va qizlarni gender asosida o'ldirish ayollarga nisbatan zo'ravonlikning eng og'ir shaklidir. Ular hayotning shaxsiy va jamoat sohalarida turli vaziyatlarda, shuningdek, huquqbuzar va jabrlanuvchi

o'rtasidagi munosabatlarning turli kontekstlarida paydo bo'lishi mumkin. Bularga, masalan, jismoniy, jinsiy yoki ruhiy zo'ravonlik yoki ta'qib epizodlari, odam savdosi, majburiy mehnat yoki qullik sharoitida sodir etilgan qotillik holatlari; yoki qotillik, jabrlanuvchining jasadi jamoat joyida qoldirilgan. Bu butun dunyoni qamrab olgan muammo bo'lsa-da, 2021-yilda eng ko'p holatlar Osiyo (17 800) va Afrika (17 200) mamlakatlarida qayd etilgan. Keyingi o'rinlarda Shimoliy va Janubiy Amerika (7000 dan ortiq), Yevropa (2500) va Okeaniya (300). Biroq, muammoning haqiqiy ko'lamini, ehtimol, ancha katta. Ayollar o'limining ko'plab qurbonlari hisobga olinmaydi: sudlar qotillikni jinsga bog'liqligini aniqlash uchun har doim ham yetarli ma'lumotga ega emas. 2021-yilda dunyo bo'ylab 45 mingga yaqin ayol va qiz o'zlarining yaqin insonlari yoki boshqa oila a'zolari tomonidan o'ldirilgan. Bu har soatda o'rtacha beshdan ortiq ayol yoki qiz o'z oila a'zolari tomonidan o'ldirilganligini anglatadi.

Ayollar o'limining 56 foizi yaqin insonlar yoki boshqa oila a'zolari tomonidan sodir etilgan bo'lsa, erkaklar o'ldirilishining atigi 11 foizi xususiy sohada sodir etilgan [2]

**Odam savdosi** - bu odam savdosi va foyda olish maqsadida ekspluatatsiya qilish jinoyatidir. Jismoniy va jinsiy zo'ravonlik, shantaj, hissiy manipulyatsiya va rasmiy hujjatlarni musodara qilish odam savdogarlari tomonidan qurbonlarini nazorat qilish uchun qo'llaniladi. Ekspluatatsiya jabrlanuvchining vatanida, harakatlanayotganda yoki chet elda sodir bo'lishi mumkin. Odam savdosi turli shakllarda sodir bo'ladi. Ushbu jinoyat qurbonlari orasida erkaklar, ayollar va har qanday yoshdagi va bolalar bo'lishi mumkin, ammo odam savdosi birinchi navbatda ayollarga ta'sir qiladi va qizlar ko'pincha jinsiy ekspluatatsiya uchun sotiladi. 2020-yilda dunyo bo'ylab aniqlangan har 10 odam savdosi qurbonining taxminan to'rt nafari voyaga yetgan ayollar va ikki nafarga yaqini qizlardir. Jinsiy savdo qurbonlarining aksariyati (91 foizi) ayollardir. Sud ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar savdogarlar qo'lida erkaklarga qaraganda uch baravar ko'proq jismoniy yoki tajovuzkor zo'ravonlikka duchor bo'lishgan [2].

**Bolalar nikohi** - tomonlardan kamida bittasi 18 yoshga to'lmagan har qanday majburuy nikoh shakli bo'lib, har yili dunyo bo'yicha majburan 12 mln xotin-qizlar 18 yoshga to'lmasdan turmushga chiqishadi[4].

**Xotin-qizlarga nisbatan texnologiya bilan bog'liq zo'ravonlik** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki boshqa raqamli vositalar yordamida sodir etilgan yoki ularga yordam beradigan, potentsial yoki bevosita jismoniy, jinsiy, psixologik, ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy zararga olib keladigan yoki huquq va huquqlarning boshqa buzilishiga olib keladigan har qanday harakatlar hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqidagi har 10 ayoldan biri 15 yoshdan boshlab kiber-tajovuzni boshdan kechirgan, jumladan, istalmagan va yoki haqoratimiz jinsiy mazmundagi elektron pochta xabarlar yoki SMS-xabarlar, yoki ijtimoiy tarmoq saytlarida haqoratimiz xabarlar olgan [1].

Arab davlatlaridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2021-yilda mintaqadagi internet foydalanuvchilarining 60 foizi onlayn zo'ravonlikka duchor bo'lgan [3].

Ugandada, 2021 yilda ayollarning qariyb yarmi (49 foizi) hayotining qaysidir qismida onlayn tazyiqlar bilan shug'ullangani haqida xabar bergan [4]

Koreya Milliy Inson Huquqlari Komissiyasining 2016-yilda o'tkazgan so'roviga ko'ra, ayollarning 85 foizi internetda nafrat so'zini boshdan kechirgan [5].

**Xulosa.** Zo'ravonlikka uchragan ayollarni muntazam ravishda o'zini qadrsiz, past va sevgiga noloyiq his qiladigan xulq-atvor namunasi sifatida ta'riflash mumkin. Jabrlanuvchilar ham ruhiy tushkunlik va xavotirni his qilishadi va o'zlarini xavfsiz his qilishmaydi. Va ba'zida ular o'zlarining dunyodagi ahamiyatini faqat tashqaridan baholash va boshqalar uchun qulaylik bilan belgilanadi deb o'ylashadi. Uzoq muddatli zo'ravonlikda jabrlanuvchining shaxs xususiyatlarida o'zgarishlar namoyon bo'lib boradi. Misol uchun, agar odam o'ziga xavf va zararni kamaytirish uchun tajovuzkorning ehtiyojlarini moslashtirishga va taxmin qilishga majbur bo'lsa, huquqbuzarning xohish-istaklari bilan birlashish xavfi mavjud. Ba'zan ular o'z ehtiyojlarini unutishadi zo'ravonning soyasiga aylanishadi. Teskari vaziyatlarda zo'ravonlik qurbonlari g'azablanishadi va tajovuzkor himoyaga kirishadilar. Keyin

## International Conference on Education and Innovation

odam asta-sekin zo'rovonga o'xshab qoladi va o'z xatti-harakatlarini takrorlay boshlaydi, uning xususiyatlari va muloqot uslubini o'zlashtiradi va oxir-oqibat o'zini zo'rvon bilan tanishtiradi.

Agar jabrlanganlarda ruhiy kasalliklarga genetik moyillik mavjud bo'lsa va buzg'unchi munosabatlardan chiqishning hech qanday usuli bo'lmasa (u moddiy yoki huquqiy jihatdan zo'rvonlikka qaram bo'lsa), zo'rvonlik natijasida ruhiy kasalliklar rivojlanishi mumkin. Xususan, depressiya, tashvish, bipolyar buzuqlik va travmadan keyingi stress buzilishi. Ikkinchi holda, qo'zg'atuvchi vaziyatlarda, odam munosabatlar tugaganidan keyin ham yillar o'tgandan keyin kuchli his-tuyg'ularga, umidsizlikka va og'riqlarga duch keladi. Vaqt o'tib ko'pincha dahshatli tushlar va yuqori tashvishlardan aziyat chekishadi va yangi odamlar va joylarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bunday holatlarda psixologik yordamni tashkil etish judam muhim va zarurdir. Zo'rvonlikning oldini olishda esa avvalo xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish, zo'rvonlikka qarshi qouniy chora-tadbirlarni kuchaytirish va zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarni rehabilitatsiya va moslashtirish markazlariga joylashtirish tizimini soddalashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1. <https://eca.unwomen.org/ru/stories/explainer/2023/12/fakty-i-cifry-iskorenenie-nasiliya-v-otnoshenii-zhenschin>
2. UN Women (2021). [Violence against women in the online space: Insights from a multi-country study in the Arab States.](#)
3. Uganda Bureau of Statistics (2021). [National survey on violence in Uganda. Module I: violence against women and girls.](#)
4. <https://www.girlsnotbrides.org/about-child-marriage/>
5. National Human Rights Commission of Korea, Sung Soo Hong, and others (2017). The situation of hate speech and regulatory measures to combat hate speech